

INTERYER KOMPOZITSIYASI MAVZUSIDA ISHLASH


Xasanova Marjona Amirovna

Annatatsiya. Ushbu maqolada interyer kompozitsiyasini tasvirlash, zavod va sexlarning asarlardagi tasvirlari va u yerdagi ishlovlar, rangi, muhit va ishchilarning holati bevosita ham tomoshabin ham rassomlarni o'ziga jalb qilishi va chet el rassomlarining bir qator asarlari bilan qisqacha tanishtirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Interyer, shift, estetik, metal, sex, teatr, maishiy.

Tasviriy san'atda interyerni tasvirlash qiziqarli mavzulardan biridir. Tarixiy, maishiy va zamonaviy mavzudagi badiiy asarlarda interyer fon tariqasida ham ishlatilishi mumkin.


Interyer holati orqali xonadon sohibining didi haqida, yoki zavod sexini jihozlanganiga qarab ilmiy taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarning bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Teatrda interyer har tomonlama ichki jihozlari bilan estetik jihatdan zavod sexidan farq qiladi. Zavodning metall quyish sexini ko'z oldimizga keltiraylik. Katta sex poliga yotqizilgan katta hajmdagi plitalar, relsda harakat qilayotgan og'ir kranlar, kumushsimon tutun orasidan sexga tushayotgan sun'iy yorug' yonidagi metall pishiriq qozondan ko'rinayotgan qizil va kuk tutun kabi holati o'zini hayotiy go'zalligi bilan rassomni beixtiyor o'ziga tortadi.



rasm 23

Interyer mavzusida hayotning turli bosqichlarida ko‘plab rassomlar ijod qilishgan ularning asarlari orqali o‘shad avrdagi qishloq uylari, saroylarni ichki interyerlari orqali qanday holatda bo‘lganini bilamiz. Ko‘plab shunday realistik san’at asarlarida yozuvchi olimlarning, jamoat arboblarning xonalari tasvirlangan. Rassomlardan A.Venesianovning, «A.Nekrasov» portreti dagi (rasm 24) interyer, I.Kramskoyning «Arkatagidagi xona», I.Repinning «L.Tolstoy ish ustida» (rasm 25) ishlarini aytib o‘tishimiz mumkin.

I. Repinning «Kutmaganedilar» kartinasidagi (rasm 26) interyerda XIX asrning 80-yillari ilg‘or ziyolilarning tipik turmush–tarzi ko‘rsatilgan. Natyurmortgan isbatan interyerda chiziq va havo perspektivasining hamma qonunlariga rioya qilinadi. Xonani ichki ko‘rinishi natyurmortga nisbatan, har xil balandlikda va masofada joylashgan ko‘p predmetlar gorizontal pol va vertikal devor teksligida joylashgani bilan farq qiladi (mebel, deraza, kartina).



rasm 24

*rasm 25**rasm 26*

Foydalanilgan adabiyotla :

1. "Interyer kompozitsiyasi" (Sh. Sayidaxmedov) — 2012-yil, Toshkent: "Voris-Nashriyot".
2. "Arxitekturaviy interyer dizayni" (E. Asanov) — 2015-yil, Toshkent: "Tafakkur qanoti".
3. "Interyer dizayni: darslik" (M.X. Axmedov) — 2019-yil, Toshkent: "Navro'z".
4. "Osnovi kompozitsii v interere" (O.V. Kononova) — 2015-yil, Moskva: "Feniks".
5. "Interior Design Master Class" (Carl Dellatore) — 2016-yil, New York: "Rizzoli".
6. "Interyer dizayni: Vizual lug'at" (Gevin Embrouz) — 2015-yil, London: "AVA Publishing".
7. "The Interior Design Reference & Specification Book" (C. Grimley / M. Love) — 2018-yil, Rockport Publishers.

